

yaxshilash va turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali mintaqaviy farovonlikka xizmat qilmoqda. Kelajakda ekologik barqarorlik va innovatsion yechimlarga asoslangan loyihalarni kengaytirish orqali sohaga bo'lgan talabni yanada oshirish mumkin. Shu sababli, mehmondo'stlik sanoatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish hududiy barqaror taraqqiyotga erishishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNWTO (2023). Tourism for Sustainable Development. Madrid: World Tourism Organization.
2. Murodova Yoqutxon, & Mirboboyeva Parizoda. (2023). BARQAROR TURIZM VA EKOTURIZM TASNIFI TAHLILI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 287–289. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.438>
12. Gulomkodiroya Mamura, & Parizoda Mirboboyeva. (2024). Qishloq taraqqiyotida turizmning roli: Rural turizmning mavjud imkoniyatlari, muammolari va ilg'or tajribalari. *University Research Base*, 760–769. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/213>
13. Omonjon Umarov, & Parizoda Mirboboyeva Umidjon qizi. (2023). Madaniy meros turizmi: Asosiy tendensiyalar, rivojlanish va muammolar (O'zbekiston va Turkiya misolida). *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 8(8), 78–80. <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.809>
14. Mirboboyeva P., & Umarov, O. (2024). GASTRONOMIK TURIZMNING TURIZM SOHASIDA TUTGAN O'RNI. *University Research Base*, 552–559. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/675>
15. Melibayeva G., & Parizoda M. (2024). TURIZM XIZMAT KO'RSATISH SOXASIDA BIZNES PSIXOLOGIYANING TUTGAN ROLI. *University Research Base*, 578–581. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/680>

**“YETTI PIR” OBIDASINI MILLIY TURIZM AN'ANALARIDA AXLOQ VA MA'NAVIYATNING
O'RNI**

Ashurova Gulruxon Ohunovna

Qo'qon universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi

O'qituvchisi

Muxtorov Alijon Xoliq o'g'li

Pedagogika va psixologiya kafedrasi

Psixologiya yo'nalishi 4 kurs talabasi

Elektron pochta manzili: munibaxon99@gmail.com

alimuxtorov03@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda Markaziy Osiyodagi “Yetti pir” tasavvuf maktabining ma'naviy merosi va uning zamonaviy turizm rivojida tutgan o'rni o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — tasavvufning diniy, falsafiy va madaniy jihatlarini turistik potensial nuqtai nazaridan tahlil qilish, shuningdek, “Yetti pir” maktabining vakillari, ularning hayoti, ilmiy-ma'rifiy merosi va ziyoratgohlarning mintaqaviy turizmga qo'shgan hissasini aniqlash.

Mazkur tadqiqotda Buxorodagi “Yetti pir” ziyoratgohlari tarixiy, madaniy va ma'naviy ahamiyati, ularning mahalliy va xalqaro sayyohlarni jalb etishdagi roli hamda turizm infratuzilmasining rivojlanishidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tasavvuf ta'limotining insonparvarlik, ma'rifat va ruhiy poklik g'oyalari turistik kontent sifatida qo'llash imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, “Yetti pir” maktabi, ma'naviy turizm, madaniy meros, Buxoro, ziyoratgohlar, tarixiy obidalar, barqaror turizm.

Bugungi kunda turizm nafaqat iqtisodiyot, balki madaniyat, tarix va ma'naviyatni o'rganishning muhim vositasi sifatida rivojlanmoqda. Markaziy Osiyo, ayniqsa, O'zbekiston, o'zining noyob tarixiy obidalarini, tasavvufiy merosi va ziyoratgohlari bilan jahon turistik xaritasida alohida o'rin egallaydi. "Yetti pir" maktabi — bu nafaqat diniy-ma'rifiy markaz, balki mintaqaning ruhiy madaniyatini anglash va uni turistik mahsulot sifatida taklif qilish uchun muhim manba hisoblanadi.

Turizm sohasida "ma'naviy turizm" tushunchasi tobora keng tarqalmoqda. Bu turli dinlar, falsafiy oqimlar va ruhiy an'analarga oid obidalariga qiziqishni oshirish, ularni saqlash va jahon hamjamiyatiga yetkazishni nazarda tutadi. "Yetti pir" maktabi vakillari — Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Orif Revgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, Xoja Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshband kabi allomalarning qabrlari va xonaqohlari bugungi kunda ham minglab ziyoratchilar va sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy o'zlikni anglash jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Xalqimizning boy tarixi, madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlarini o'rganish imkoniyatlari kengaydi. O'zbekiston bugungi kunda jahonning eng qadimiy madaniy va ilmiy markazlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda tasavvuf ilmining tarixi, uning shakllanishi va rivojlanishi ham ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etilmoqda.

Mustaqillik yillarida o'zbek davlatchiligining ko'p asrlik tarixiy tajribasi, jumladan, uning ma'naviy asoslari va tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq jihatlari ham ilmiy tahlil qilina boshladi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» doirasida yoshlarga tarixiy bilim berish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlarni anglash va insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlaridan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur tadqiqotda tasavvuf tarixining shakllanish bosqichlari, uning Markaziy Osiyodagi rivojlanishi, tasavvufiy tariqatlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda mashhur so'fiy allomalarning ilmiy-ma'rifiy merosi keng qamrovda yoritiladi. Xususan, "Yetti pir" maktabi, uning vakillari, ularning hayoti, ijodi va ta'limotlari bugungi kundagi ilmiy tadqiqotlar nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Shu bilan birga, tasavvuf ta'limotining zamonaviy jamiyatdagi roli va ahamiyati ham tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqot Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-ma'naviy hayot va tasavvuf ta'limotining bu mintaqada qanday yoyilganligini o'rganishga qaratilgan. Xususan, Buxorodagi "Yetti pir" tasavvuf maktabining shakllanishi, uning vakillari bo'lgan mashhur so'fiylarning hayoti, ijodi va ta'limotlari tadqiqotning asosiy obyekti sifatida tanlangan.

Shuningdek, "Yetti pir"ning tasavvuf tarixidagi o'rni, ularning diniy-ma'rifiy merosi va jamiyatga ta'siri ham ilmiy tahlil qilinadi. Buxorodagi "Yetti pir" ziyoratgohlarining kelib chiqish tarixi, ularning xalq orasidagi hurmati va ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi roli ham o'rganiladi. Ushbu mavzuda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinib, ularning natijalari qiyosiy jihatdan baholanadi.

Ushbu tadqiqot Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-ma'naviy hayot va tasavvuf ta'limotining bu hududda tarqalish jarayonini o'rganishga yo'naltirilgan. Ayniqsa, Buxoro "Yetti pir" maktabi, uning asoschilari bo'lgan so'fiylarning hayoti, ijodi va tasavvuf tarixidagi o'rni tadqiqotning asosiy predmetidir.

Shuningdek, "Yetti pir" ziyoratgohlarining kelib chiqish tarixi, ularning aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga ta'siri ham tahlil qilinadi. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar va ensiklopediyalardagi mavzuga oid ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlil amalga oshiriladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning qayd etishicha, tasavvuf dastlab zohidlik harakati ko'rinishida VIII asr o'rtalarida vujudga keladi. Biroq, tasavvufning vujudga kelish davri borasida bo'lgani kabi, uning kelib chiqish ildizlari va vujudga kelish sabablari to'g'risida ham turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, bir guruh arab, turk va o'zbek tadqiqotchilari so'fiylikning faqatgina islomiy ildizga ega ekanligini ta'kidlasalar, boshqa bir guruh eronlik va g'arblik olimlar tasavvufda islomdan boshqa dinlar va madaniyatlar – buddaviylik, zardo'shtiylik, yahudiylilik, xristianlik va

monaviylik dinlari yoki Qadimgi Yunoniston falsafiy ta'limotlari ildizlarini ham ko'rishadi¹⁰⁴. Ingliz sharqshunosi J. S. Trimingem esa tasavvufning umuman islomiy ildizga ega emasligini ta'kidlab shunday deydi: «Tasavvuf musulmon manbalaridan deyarli hech narsa olmasdan, islom ichida rivojlandi, shu bilan birga, sharqiy xristianlikning asketik va mistik amaliyoti hamda falsafasini o'zlashtirdi». Aytib o'tish lozimki, g'arb tasavvufshunosligida bunday qarash yangilik bo'lmay, undan ancha oldin shveytsariyalik sharqshunos Adam Mes (1869 – 1917) ham tasavvufning xristianlik gnostitsizmi ta'sirida kelib chiqqan hodisa ekanligini ta'kidlab, «IX - X asrlarda islomni o'zgartirib yuborgan» so'fiylik harakatining «bir qancha xristianlik g'oyalarining muhammad diniga tajovuzidan boshqa hech narsa emas»ligi to'g'risida xulosa chiqargan edi. Eronlik tadqiqotchi R. Birinjkor bular o'rtasida «oltin o'rtalik»ni topishga urinib tasavvuf o'zining asosiy tushunchalarini islomdan olganligi, ammo so'fiylikning nazariy va amaliy jihatlari uchun aniq tizim va qoidalar ishlab chiqish jarayonida boshqa xalqlarning mistik va falsafiy qarashlaridan ham foydalanilganligini eslatadi.

Tadqiqotchilar tomonidan tasavvufning vujudga kelish sabablari to'g'risida ham turli qarashlar bildirilgan bo'lib, mazkur sabablar orasida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Diniy sabablar. Tasavvuf islom dini doirasidagi hodisa sifatida, birinchi navbatda, islom ta'limoti, jumladan, Qur'on oyatlari va hadislarga tayangan holda vujudga kelgan ta'limotdir. Tadqiqotchilarning aniqlashicha, Allohning barcha joyda hoziru nozir ekanligi, Uning o'z bandalariga yaqinligi hamda ularni eslashi va sevishi barobarida bandalarini ham Uni eslashlari, sevishlari va undan rozi bo'lishga, shuningdek, nafsga qarshi kurashish orqali ezgu xislatlarga ega inson bo'lishga chorlashi to'g'risidagi, shuningdek, boshqa ko'plab oyat va hadislar islomning ilk davrlaridagi taqvodor kishilardan ma'lum qismi orasida bugun so'fiylik deb atalayotgan harakatning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Jumladan, so'fiylar Qur'oni karimning «Baqara» surasidagi 115-oyatning «... **qaysi tarafga yuzingizni qaratsangiz, o'sha tomonda Allohning «yuzi» mavjuddir**»¹⁰⁵ qismiga asoslangan holda Allohning barcha joyda hozir ekanligi, mazkur suradagi 186-oyatning «**Sizdan [ey Muhammad!] bandalarim Mening haqimda so'rasalar, [ayting] Men ularga yaqinman. Menga iltijo qiluvchining duosini ijobat eturman**»¹⁰⁶ qismi, «Qof» surasidagi 16-oyatning «**Biz unga bo'yin tomiridan ham yaqinroqdirmiz**»¹⁰⁷ qismi hamda «**Kim menga bir qarich yaqinlashsa, Men unga bir arshin yaqinlashurman. Kim Men tomon bir arshin yaqinlashsa, Men unga bir quloq yaqinlashurman. Kim men tomon yurib kelsa, men u tomon yugurib borurman**»¹⁰⁸ degan hadisi qudsiydan chiqqan holda esa Uning o'z bandalariga yaqin ekanligini chuqur his etib, doimo o'y-xayol va diqqat-e'tiborlarini Unga qaratishga, buyurgan, va qaytarganlariga to'la rioya qilish orqali Unga yaqinlashishga intilishgan. Alloh taolo «Baqara» surasining 152-oyatida o'z bandalariga qarata: «**Bas, meni yod etingiz, [Men ham] sizlarni yod eturman**»¹⁰⁹, - deya buyurishi so'fiylarni doimo Allohning yodi bilan bo'lishga ilxomlantirgan bo'lsa, «Moida» surasining quyidagi oyati so'fiylarning Allohga bo'lgan muhabbati uchun asos bo'lib xizmat qilgan: «**Ey imon keltirganlar! Sizlardan kimki dinidan qaytsa, Alloh shunday bir qavmni keltirurki, ularni Alloh sevadigan va ular ham Uni sevadigan, mo'minlarga [nisbatan] kamtar, kofirlardan esa [o'zlarini] yuqori tutuvchi,**

¹⁰⁴ Qarang: Nafisiy, Said. Eronda tasavvuf ildizlari. - B.5 - 42, 57 - 60, 81 - 89, 99 - 103; Zarrink'ib, Abdulhusayn. Eron tasavvufi borasida izlanish. – B.1 - 2;

¹⁰⁵ Qur'oni karim. Baqara surasi, 115-oyat Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2012 (Qur'oni karimdan keltiriladigan boshqa oyatlar ma'nolari tarjimasi ham shu manba asosida beriladi).

¹⁰⁶ Qur'oni karim. Baqara surasi, 186-oyat.

¹⁰⁷ Qur'oni karim. Qof surasi, 16-oyat.

¹⁰⁸ Muslim va Termiziy Abu Zarr al-G'iforiy (r.a.)dan naql qilgan holda rivoyat qilishgan.

¹⁰⁹ Qur'oni karim. Baqara surasi, 152-oyat.

Allohning [toati] yo'lida jiddu jahd qiluvchi, malomatchining malomatidan qo'rqmaydigan bo'lurlar».¹¹⁰

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tasavvuf tushunchasi Qur'onda tazkiya (poklash), hadisda esa ehson (yaxshilik qilish) so'zi bilan anglatilganligini aytarkan, Muhammad (s. a. v.)ning ehson to'g'risida: «Ehson - Allohga xuddi Uni ko'rib turgandek, agar sen Uni ko'rmasang, U seni ko'rib turgandek ibodat qilmog'ingdir», - deb aytganlarini eslatadi¹¹¹.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy sabablar. Arab xalifaligi tomonidan olib borilgan yurishlar natijasida ko'plab o'lkalarning fath etilishi bilan o'ljalar va soliqlar ko'rinishidagi daromadlarning oshishi musulmon jamiyati a'zolaridan bir qismining boyib ketishiga olib keldi. Bu esa, bir tomondan, musulmonlar jamiyatida mol-dunyo va boylikka berilish kayfiyatining kuchayishiga, ikkinchi tomondan, ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi jarlikning kengayishiga va ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashishiga sabab bo'ldi. Natijada taqvodor kishilarning mol-dunyoga berilishga qarshi norozilik kayfiyatlari uchinchi xalifa Usmon (r. a.) davridan boshlanib, umaviylar xalifaligi davrida kuchayib ketdi. O'zbek tasavvufshunos olimi Najmiddin Komilov shundan yozadi: «... xalifa Usmon raziyallohu anhu zamonida boylikka ruju qo'yish, qimmatbaho tuhforalar bilan qarindosh-urug'lar, yaqin do'st-birodarlarni siylash rasm bo'ladi. Umaviylar xalifaligi davriga kelib esa saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to'plash avj oldi. Ya'ni diniy mashg'ulotlar, Alloh yo'lidagi toat-ibodat o'rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boyliklardan ustun qo'ygan e'tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo'ldi»¹¹².

3. Ijtimoiy-siyosiy sabablar. Musulmonlar o'rtasida hokimiyat uchun kechgan qonli urushlar, ular natijasida hokimiyatga chiqqan umaviylar, keyinroq abbosiylar sulolasining diniy ideallarga hamisha ham to'g'ri kelavermaydigan siyosati, bir tomondan, taqvodor kishilar nazdida qiyomat yaqinlashishining belgisi bo'lib ko'rinib, ularning bu dunyo lazzatlaridan voz kechib, toat-ibodatga berilishlariga, ikkinchi tomondan, hukmron tabaqalar zulmiga qarshi kurash foydasizligini anglab, go'shanishinlikka berilishlariga sabab bo'ldi. Zero, islom ideallariga sodiq kishilar hukmron tabaqalarning moddiy boylikdan ma'naviyatni ustun qo'yuvchi, ijtimoiy adolatni targ'ib qiluvchi hamda barchani tinchlik va totuvlikka chorlovchi islom ta'limotini o'z manfaatlariga moslab talqin etishlarini hazm qila olmasdilar. Fransuz sharqshunosi A. Korben bu to'g'rida: «Tasavvuf - musulmonchilikdagi har qanday ikkiyuzlamachilikka qarshi kuchli e'tiroz», - deb yozadi.

4. G'oyaviy-aqidaviy sabablar. Ilk xalifalar, xususan, to'rtinchi xalifa Ali ibn Abu Tolib (k. v.) zamonidan boshlangan siyosiy, keyinchalik shu bilan bog'liq aqidaviy ixtiloflar islom ichida ortodoks hisoblangan sunniylikdan tashqari, shialar, xoriijiyalar, qadariylar, jabariylar, murji'iyalar, mo'taziliylar, karroniylar, qarmatiylar va shu kabi boshqa ko'plab diniy-siyosiy, diniy-aqidaviy oqimlarning vujudga kelishiga hamda ular o'rtasida Alloh, payg'ambarlik, imon, kufr kabi sof diniy mavzulardan tortib hokimiyat va hukmronlik kabi siyosiy mavzulargacha bo'lgan masalalar borasida bahs-munozaralar va o'zaro kurashlarning avj olishiga sabab bo'ldi. Musulmonlar jamiyati a'zolari orasida ixtilof va bo'linish keltirib chiqaradigan bunday jarayonlar ham taqvodor kishilarning noroziligiga sabab bo'lib, ularda go'shanishinlik va zohidlik kayfiyatini kuchaytirgan bo'lishi mumkin. Ye. E. Bertels nafaqat ushbu oqimlari kurashlar oqibatlarini, balki mazkur oqimlarning o'zini uning paydo bo'lishiga olib kelgan omillar sifatida eslatib o'tadi. Jumladan, u mo'taziliylikni tasavvufning vujudga kelishida muhim o'rin tutgan oqim sifatida ko'rsatishga urinarkan, ushbu oqim asoschilari: Ato (vaf. 131/748) va Amr ibn Ubaydning (vaf. 145/761) zohid bo'lganliklarini ta'kidlaydi. Biroq mo'taziliylarning so'fiylardagi fatalizmga butunlay qarama-qarshi bo'lgan iroda erkinligi to'g'risida so'z yuritish ular o'rtasida qandaydir aqidaviy-nazariy aloqa bo'lishi mumkinligi ehtimolini yo'qqa chiqaradi. O'rta asr tarixchisi

¹¹⁰ Qur'oni karim. Moida surasi, 54-oyat.

¹¹¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. - B.37 - 63.

¹¹² Komilov N. Tasavvuf. - B.9.

Maqdisiy (336 380/999) ham karromiylarning musulmon o'lkalar bo'ylab yoyilib ketgan ko'plab xonaqohlari, zikr majlislari to'g'risida ma'lumot berish asnosida ularni «kalom, fiqh va zuhd bilimdoni» hamda «zohid va taqvodor kishilar» sifatida ko'rsatadi. J. S. Trimingem Maqdisiyga tayangan holda so'fiylarning xonaqoh institutini aynan karromiylardan o'zlashtirgan bo'lishlari mumkinligi ehtimolini qayd etadi, biroq karromiylarning so'fiylarni ma'qullamaganliklarini eslatish orqali karromiylik ta'limotining o'zini tasavvufning vujudga kelishi yoki rivojlanishida qandaydir o'rin tutgan omillardan biri deb hisoblashdan saqlanadi.

“Yetti pir” maktabining turistik ahamiyati

1. Tarixiy-madaniy meros:

Buxoro va uning atrofidagi “Yetti pir”ga oid obidalar (masalan, Bahouddin Naqshband majmuasi) UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Bu obidalar me'morchilik uslubi, epigrafik yozuvlar va tasavvufiy ramzlarning uyg'unligi bilan ajralib turadi.

2. Ma'naviy turizmning rivoji:

Ziyoratgohlarda o'tkaziladigan marosimlar (zikr, duolar) va an'analar sayyohlar uchun noyob tajriba hisoblanadi.

Xalqaro turistik turlarda “Yetti pir”ga oid ekskursiyalar keng qo'llanilmoqda.

3. Iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir:

Ziyorat turizmi mahalliy aholi uchun ish o'rinlari yaratadi (gidlar, hunarmandlar, mehmonxona xizmatlari).

Obidalarni qayta tiklash loyihalari xorijiy investitsiyalarni jalb qiladi.

Xullas, ilk so'fiylarning qaysi ijtimoiy qatlamlar vakillaridan tashkil topganligi ham tasavvufning vujudga kelish omillarini aniqlashtirishga yordam beradi. Sharqshunos Ye. E. Bertels va boshqa bir guruh tadqiqotchilar ilk so'fiylarning muhaddislar orasidan chiqqanliklarini ta'kidlasalar, A. D. Knishning fikricha, so'fiylikning ilk shakli bo'lmish zohidlik yo'liga kirgan kishilar orasida muhaddislardan tashqari qissago'ylar, qorilar, Vizantiya bilan chegara janglari ishtirokchilari, taqvodor savdogarlar va hunarmandlar bo'lganlar. A. D. Knish bu o'rinda «chegara janglari ishtirokchilari» deganda g'oziylarni nazarda tutayotganligini anglash mumkin. «G'oziylar» deb musulmonlarning VII asrning ikkinchi yarmi – IX asrning birinchi yarmidagi fathlarda ishtirok etgan, IX asrning oxirlaridan boshlab esa Arab xalifaligining shimoliy, shimoli-sharqiy, janubi-g'arbiy va g'arbiy chegaralaridagi rabotlarda istiqomat qila turib islom hududlarini tashqi dushman tajovuzidan qo'riqlovchilar vazifasini bajargan harbiylashgan ijtimoiy qatlamlarga aytilgan. Tarixchilar IX asrda Samarqand, Shosh va Farg'ona hududlaridagi rabotlarda istiqomat qiluvchi g'oziylar to'g'risida ham ma'lumot berishgan. Jumladan, Somoniy hukmdor Nasr ibn Ahmad zamonida g'oziylar qo'shinidagi otliq jangchilar qirq ming kishini tashkil etgan. Somoniylar g'oziylar qo'shinidan ham mamlakatni tashqi hujumlardan mudofaa qilishda, ham qo'shni o'lkalarga hujumlar uyushtirishda samarali foydalanishgan. Islom o'lkalariga chegaradosh xalqlarning islom dinini qabul qilishi, ularning islom davlatlari tobeligiga o'tishi yoxud ular bilan yaxshi munosabatlarning o'rnatilishi natijasida g'azavot janglariga ehtiyoj qolmaganligi g'oziylarning harbiylashgan ijtimoiy qatlam sifatidagi ahamiyati ham yo'qolishiga, ulardan ma'lum qismining esa zohidlik yo'liga kirishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. V. V. Bartold, bir tomondan, Misrda g'oziylar rabotlari qatorida «o'z ibodatlarini bilan yurti balolardan saqlaydigan zohidlar rabotlari»ning ham paydo bo'lganligi, ikkinchi tomondan, Markaziy Osiyoda rabotlardan diniy ibodat va diniy ta'lim maqsadlarida ham foydalanilganligini eslatish orqali g'oziylar rabotlari bilan din va tasavvuf o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga urinadi. Shu o'rinda «Sharh at-Ta'arruf» muallifi Mustamliy Buxoriyning (vaf. 434/1043) X asr boshlarida Farg'ona mintaqasidagi musulmon bo'lmagan xalqlar bilan chegaradagi rabotlardan birida eri Abu Ja'far bilan birga yashagan so'fiy ayol Amra to'g'risida keltirgan ma'lumoti¹¹³ e'tiborni tortadi.

¹¹³ Qarang: Sharh at-Ta'arruf. 3-r. - B.963 - 964.

Darhaqiqat, bu davrda Farg'ona mintaqasi somoniylar davlatining (875 – 999) qoraxoniylar davlati (927 - 1211) hududida yashovchi hali islom diniga kirmagan xalqlar bilan chegarasi hisoblangan. Bu esa bizning chegara rabotlarida yashagan g'oziyarlardan hech bo'lmaganda ma'lum qismining so'fiylikning ilk ko'rinishi bo'lmish zohidlik yo'lga kirganliklari to'g'risidagi taxminimizni tasdiqlaydi.

Keyinchalik «so'fiylik» deb nomlangan harakat vujudga kelgan dastlabki paytlarda ushbu harakat vakillariga nisbatan so'fiy so'zi qo'llanilmagan. O'sha davrda bu dunyoning mol-dunyosi va lazzatlaridan voz kechib, o'zini Allohga ibodat qilishga bag'ishlagan kishilarga nisbatan obid (ibodat qiluvchi), nosik (taqvodor) va zohid (tiyiluvchi) so'zlari qo'llanilgan. Oradan bir oz o'tib Iroqning Kufa shahrida yashovchi zohidlarga nisbatan «so'fiy» so'zi qo'llanila boshlagan. Ilk bor, so'fiy nomi bilan mashhur bo'lgan kishilar orasida Abu Hoshim Kufiy (vaf. 166/766), Eronning Tus shahrida tug'ilib, keyinchalik Kufa shahrida yashab qolgan kimyo, tibbiyot va dorishunoslik sohalari olimi Jobir ibn (100/721 - 194/815) hamda Kufa shahrida yashagan Abdak So'fiy (vaf. 210/825) nomlari eslatiladi. Hasan Komil Yilmaz shundan kelib so'fiy va tasavvuf tushunchalarining ilk bor Kufa shahrida vujudga kelganligini taxmin qiladi. A. D. Knishning ishonishicha, kufaliklarning iroqlik xristian rohiblariga taqlidan jundan to'qilgan matodan tikilgan kiyim kiya boshlashlari ularga «so'fiy» («jun kiygan kishi») degan nomning berilishiga sabab bo'lgan. Biroq ta'limot to'g'risidagi ilk fundamental asarlardan birining muallifi Sarroj Tusiyning (vaf. 378/988) yozishicha, tobeinlardan bo'lmish Hasan Basriy (vaf. 110/728) Ka'bani tavof qiluvchi bir «so'fiy»ni – jun kiyim kiygan kishini ko'rgan. Bundan tashqari, ushbu muallif Muhammad ibn Isxoq ibn Yasordan naql qilingan xabarga tayangan holda islomdan oldingi davrlarda Ka'bani tavof qiluvchi «so'fiy»lar – jun kiyim kiygan kishilar bo'lganligi to'g'risida ma'lumot keltiradi. Bu esa, birinchidan, «so'fiy» so'zining islomdan oldingi davrlarda va islomning boshlarida ham ishlatilganligi, taqvodor, xususan, Ka'bani tavof qiluvchi kishilarga nisbatan qo'llanilganligi, ikkinchidan, ushbu so'zning faqatgina Iroqda emas, balki Hijozda ham mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

O'tmish manbalarida «so'fiy» so'zining etimologiyasi va lug'aviy ma'nosi to'g'risida turli taxminlar keltirilgan. «So'fiy» so'zining etimologiyasi borasida birinchilardan bo'lib fikr bildirgan Abu Nasr Sarroj Tusi (vaf. 377/987), Abu Bakr Kalobodiy (305/917 - 385/995), Mustamliy Buxoriy (vaf. 434/1043) va Abu-l-Hasan Hujviriy (vaf. 465/1073) «so'fiy» so'zining quyidagi to'rt arabcha so'zdan biridan yasalganligi to'g'risida taxmin qilganlar: 1) suf (jun) so'zidan - jundan to'qilgan kiyim kiygan kishi ma'nosida; 2) saf (saf, qator) so'zidan - Allohga yaqin kishilar orasida birinchi safda turadigan kishilar ma'nosida; 3) safo (soflik, poklik) so'zidan – qalbi pok kishi yoki qalbini Xudodan boshqa barcha narsalardan poklagan kishi ma'nosida; 4) ahl as-suffa (suffa ahli) iborasidagi suffa so'zidan suffa ahli davomchilari ma'nosida. Biroq tasavvufning ilk nazariyotchilaridan bo'lgan Abu-l-Qosim Qushayriy (376/986 - 465/1072) «sufiy» so'zining etimologiyasi borasidagi taxmin qilingan ushbu to'rt variantni noto'g'ri deb toparkan, umuman, mazkur so'zning arabcha negizda yasalganligini shubha ostiga oladi. Abu Rayhon Beruniy (362/975 - 440/1048) ham «so'fiy» so'zining arabcha asosga ega emasligini ta'kidlab, uning yunoncha sofiya (donishmandlik) so'zidan yasalganligi va «donishmand» ma'nosini berishini aytadi. Abu Nuaym al-Isfahoniy (vaf. 430/1038) esa «so'fiy» so'zining quyidagi arabcha so'zlardan yasalgan bo'lishi mumkinligini taxmin qiladi: 1) sufona (mayda o't) so'zidan – so'fiylarning birinchidan, o'zlarini yerga yopishib yotgan mayda o't-o'landek kamtarin va xokisor tutganliklari, ikkinchidan, ularning o't-o'lanlar va yaproqlar bilan ham oziqlanganliklari sababli; 2) sufa so'zidan – so'fiylarning islomdan oldingi davrda haj ishlarini boshqarish va Ka'bada xodimlik qilish bilan shug'ullangan arablarning sufa qabilasi ahliga o'xshab ketishlari sababli; 3) sufa (bo'yinga tushib turgan soch) so'zidan – sochi bo'yniga tushib turgan ma'nosida. Bundan tashqari, ayrim mualliflar «so'fiy» so'zining arabcha sifat (xususiyat - o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan kishi ma'nosida) yoki sufa (turli qavmlardan bo'lgan kishilar – ilk so'fiylarning turli qabilalar va millatlar hamda turli ijtimoiy qatlamlar vakillaridan bo'lganlarini nazarda tutgan holda) so'zlaridan yasalganligini taxmin qilishgan. Professor Najmiddin Komilov «so'fiy» so'zining

etimologik variantlari orasida arabcha sufuh (ajratib olingan, xolis) soʻzining mavjudligini ham eslatadi¹¹⁴. «Soʻfiy» soʻzining muayyan bir soʻzdan emas, balki turli soʻzlardan olingan harflar birikmasidan yasalganligi toʻgʻrisida taxmin ham mavjud. Bunday qarash tarafdorlarining ishonishicha, «soʻfiy» soʻzi muayyan bir soʻzdan emas, balki soʻzlarda bosh harf boʻlib kelgan arabcha sod (s), vov (v, u) va fo (f) harflarining qoʻshilishidan vujudga kelgan suf birikmasidan yasalgan boʻlib, bunda sod (s) harfi sabr, sidq va safo, vov (v, u) harfi vudd, vird va vafo fo (f) harfi esa fard, faqir va fano soʻzlarini bildiradi. Biroq «soʻfiy» soʻzining kelib chiqishi borasida qanchalik turli-tuman, baʼzida anchayin ishonchli koʻrinadigan taxminlar bildirilgan boʻlmasin, koʻpchilik tadqiqotchilar «soʻfiy» soʻzining arabcha suf (jun) soʻzidan yasalganligi va «jun kiyim kiygan kishi» maʼnosini berishini eng toʻgʻri variant deb hisoblashadi.

Tasavvuf paydo boʻlganidan boshlab oʻz tarixiy taraqqiyotining bir necha davrini bosib oʻtdi. Shu oʻrinda eslatib ketish lozimki, tasavvuf tarixi turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha koʻrinishda davrlashtirilgan boʻlib, haligacha tasavvufning kelib chiqish va rivojlanish tarixi, tasavvuf taraqqiyotining aniq davrlari borasida yakuniy xulosaga kelingani yoʻq. Jumladan, turkiyalik tasavvufshunoslar tasavvuf tarixini zuhd davri (VII – VIII asrlar), tasavvuf davri (IX - X asrlar) va tariqatlar davri (XI asrdan keyin) deb ataluvchi uch davrga, eronlik tadqiqotchi R. Birinkor esa zuhd davri (VII – VIII a. boshlari), xonaqohlarning vujudga kelishi va soʻfiylik qoidalarining shakllanishi davri (VIII a. oʻrtalari – IX a. boshlari), irfonning shakllanishi davri (IX - XIII asrlar), nazariy irfon davri (XIII – XIV asrlar) hamda soʻnggi davr (XV asrdan keyin) deb ataluvchi besh davrga boʻlib oʻrgansa, oʻzbek tasavvufshunosi N. Komilov tasavvuf tarixida ikki davr – zohidlik davri (VIII a, oʻrtalaridan boshlab) hamda oriflik va oshiqlik davri (IX a. oʻrtalaridan boshlab) mavjud boʻlganligi, ikkinchi davr, oʻz navbatida, bir necha kichik davrlardan iborat ekanligi toʻgʻrisida soʻz yuritgan¹¹⁵.

Shu oʻrinda aytib oʻtish lozimki, tasavvuf tarixi davrlarining biz tomonimizdan umumiy tarzda belgilab koʻrsatilgan vaqt chegaralari unchalik ham qatʼiy boʻlmasdan, nafaqat turli oʻlkalar va markazlarda turli vaqt kengligida kechgan, balki hatto bir oʻlkaning oʻzida ham tasavvuf tarixidagi bir davr bilan ikkinchi davrning bir-birining vaqt chegaralaridan oʻtib ketish holatlari boʻlgan. Masalan, soʻfiylik maktablari va oqimlari davri (IX – XI asrlar) boshlanganidan keyin ham maʼlum oʻrinlarda undan oldingi zohidlik davri unsurlarining hamon mavjud boʻlganligi yoxud soʻfiylik maktablari va oqimlari davriga xos belgilarning soʻfiylik tariqatlari davri (XII asrdan keyin) boshlanib ketganidan soʻng ham davom etganligi kuzatiladi.

Xulosa: “Yeti pir” maktabi anʼanalarini turizm kontekstida oʻrganish nafaqat mintaqaning maʼnaviy qadriyatlarini targʻib qilish, balki uning iqtisodiy va madaniy salohiyatini oshirish imkoniyatini beradi. Kelajakda ushbu merosni qayta ishlab, interaktiv ekskursiyalar, virtual sayohatlar va ilmiy-tadqiqot loyihalari orqali jahon miqyosida tanitish zarur.

Takliflar: “Yeti pir” yoʻnalishidagi turistik paketlarni ishlab chiqish.

Ziyoratgohlarni raqamlashtirish (3D turlar, mobil ilovalar).

Xalqaro konferensiyalar va festivallar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq. – T.: Sharq; 1998. –B. 8.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz.1-jild. –T.: Oʻzbekiston; 2018. –B. 383.
3. Azimjonova S. Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii. M., «Nauka», 1977 y.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma». T., Yoʻlduzcha. 1989 yil.
5. SHamsutdinov R., Abdullayev F., Abdullayev M., Buyuk Boburiylar saltanati. Andijon, «Meros», 1995 y.

¹¹⁴ Komilov N. Tasavvuf. – B.11.

¹¹⁵ Komilov N. Tasavvuf. 2009. – B.9 - 21.